XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani,O‘zbekistonko‘chasi 7-uy. tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 31 - dekabr VI-52-179-8-118-K/22 Uzun tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati Uzun tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi O'RQ-813-sonli Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 22-04-10/6153-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022 yildagi tegishli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Uzun tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun daromadlari **100 mlrd. 377 mln 816 ming so‘m**, xarajatlari **237 mlrd. 816 mln. 991 ming so‘m** prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **137 mlrd. 439 mln. 175 ming so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023 yil uchun Uzun tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024 yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023 yil uchun tuman budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari
3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjeti taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 mlrd. 244 mln. 837 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2023 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Uzun tuman budjetining ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjeti zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2023 yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 810 mln. 870 ming so‘m 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023 yilda quyidagi soliq turlari:

a) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

-yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

-yuridik shaxslardan olingadigan yer solig‘i;

-benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

-ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga huquq uchun yig‘imlar;

-qounuchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘zi yurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undirlaidgan utilizatsiya yig‘imidan tashqari);

-avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududidga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘imlar;

-davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

b) Viloyatning viloyat budjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lig‘icha o‘tkaziladi:

-elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

-qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

-qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

-qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (dromadlar) va ajratmalar;

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

-foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekitson Respubilkasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yhatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidenlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi o‘tkaziladi.

v) Quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalaridan tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

-aylanmadan olinadigan soliq;

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 25 oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov, Moliya bo‘limi B.Baratov, tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Qosimov) tuman mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan budjet tashkilotlar bilan

birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetiprognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Qosimov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratinikuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirishvazifasi yuklatilsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Qosimov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (Sh.Xurramov) 2023 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk

solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Majburiy ijro byurosi Surxondaryo viloyati Uzun tuman bo‘limi (Z.Raximov) tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Qosimov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvatlash bo‘limi (D.Safarova) tumandagi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman Irrigatsiya tizimlari bo‘limi va tuman davlat soliq inspeksiyasi, tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (M.Ishqorayev), tuman yo‘l harakati xavfsizligi guruhi, tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi direktori (X.Abdukadirov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

19. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatning qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

20. Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

22.Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

23.Mazkur qaror “Bobotog‘ tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni

amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.B.Tursunov**

Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-52-179-8-118-K/22-son qaroriga
1-ilova

Uzun tumanining 2023-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2023-2024-yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2023-yil uchun prognoz	2024-yil uchun mo‘ljal
1.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	106,0	105,0
2.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104,2	104,3
3.	Xizmat ko'rsatish sohasi o‘sish sur’ati, foizda	113,5	110,9
4.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	107,4	108,3
5.	Qurilish ishlari hajmi o‘sish sur’ati, foizda	106,6	106,7

Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-52-179-8-118-K/22-son qaroriga
2-ilova

Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlarining
2023-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**70 978 750,0**
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	1 070 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	39 693 750,0
3	Yagona soliq to‘lovi	5 835 000,0
4	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	8 450 000,0
5	Aksiz solig‘i	3 300 000,0
	shu jumladan:	
6	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	3 300 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 275 000,0
8	Ijara to‘lovi	200 000,0
9	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 380 000,0
10	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2 170 500,0
11	Yig‘imlar	2 960 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	472 500,0
13	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	72 000,0
14	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushum	100 000,0
II.	**Taqsimlanadigan soliqlar**	**29 399 066,0**
15	Aksiz solig‘i alkogol maxsulotlari	11 893 429,0
16	Aksiz solig‘i mobil aloqa	5 101 589,0
17	Aksiz solig‘i tamaki maxsulotlari	12 404 048,0
III.	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**137 439 175,0**
Daromadlar hammasi		**237 816 991,0**

Xalq deputatlari Uzun tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-52-179-8-118-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun Uzun tumani budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	miqdori	BO'LIM	Ijtimoiy himoya		Maktabgacha va Mas		Oliy, o'rta maxsus		Madaniyat		Sport		Fan		Boshqaruv		Fuqarolar o'z-o'zini boshqarish		Ijro xo'jaligi		Obodonlashtirish		Mudofaa		Ijtimoiy ta'minot		Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi		Mahalla va nasroniylarni qo'llab-quvvatlash		Davlat hokimiyat organlari		Xo'jalik yuritish		Yer munosabatlari		Yer munosabatlari	
				Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa	Tegishli pudratchi	Summa
	Xarajatlar miqdori, jami	**537 816 991**			**10 232 100**		**12 244 972**		**75 227 162**		**1 539 024**		**2 701 446**		-		**19 210 957**		**2 682 257**		**1 955 356**		**6 997 476**		**83 910 274**		**108 786**		**11 217 783**		**2 244 827**		**1 384 027**		**1 788 915**		**261 509**		**2 000 000**
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	**537 816 991**			**10 232 100**		**12 244 972**		**75 227 162**		**1 539 024**		**2 701 446**		-		**19 210 957**		**2 682 257**		**1 955 356**		**6 997 476**		**83 910 274**		**108 786**		**11 217 783**		**2 244 827**		**1 384 027**		**1 788 915**		**261 509**		**2 000 000**
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
	Ishlar, xizmatlar narxlari, budjetlarga transfertlar	537 688 175																																			
1.	**Xalq ta'limi boshqarmasining tashkilotlariga**	**9 192 709**	**075**	700124 700126 700128	9 192 709		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	9 192 759			9 192 759																																
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
2.	**Maktabgacha ta'lim boshqarmasining tashkilotlariga**	**12 244 972**	**251**		-	700124 700126	**12 244 972**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	12 244 972					12 244 972																														
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
3.	**Sog'liqni saqlash boshqarmasining tashkilotlariga**	**75 227 162**	**054**		-		-	703124 703126 703128 703134 703136 703142 703144 703146 703148	75 227 162		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	75 227 162							75 227 162																												
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
4.	**Ichki ageotfaglist saqlash xarajatlari**	**4 885 770**	**225**		-		-		-		-		-		-	700504	**4 885 770**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	4 885 770															4 885 770																				
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
5.	**Tuman madaniyat bo'limi**	**2 409 633**	**056**	700104	**1 128 241**		-		-	703124 703126 703128	**1 086 204**		-		-	700104	**195 088**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	2 409 633			**1 128 241**						1 086 204						195 088																				
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
6.	**Tuman sportini rivojlantirish bo'limi**	**2 701 446**	**135**		-		-		-		-	700304	**2 701 446**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	2 701 446											2 701 446																								
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
7.	**Jismoniy tarbiya boshqarmasining tashkilotlariga**	**691 424**	**802**		-		-		-		-		-		-	700204	**429 915**		-		-		-		-		-		-		-		-	700104	-	700104	**261 509**		-
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	691 424															429 915																				261 509		
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
8	**Avtojamoa tizimidagi tashkilotlariga**	**1 955 356**	**176**		-		-		-		-		-		-		-		-	700204	**1 955 356**		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	1 955 356																			1 955 356																
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
9	**Veterinariya boshqarmasining tashkilotlariga**	**1 788 915**	**250**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	700124 700126	**1 788 915**				-
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	1 788 915																																			
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
10	**Obodonlashtirish boshqarmasiga**	**6 997 476**			-		-		-		-		-		-		-		-		-		**6 997 476**		-		-		-		-		-		-		-	**2 000 000**
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	6 997 476	110																				6 997 476														4 000 000
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
11	**Mehnat bozi boshqarmasining tashkilotlari**	**812 919**	**141**		-		-		-		-		-		-	700124	**812 919**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	812 919															812 919																				
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
12	**Moliya bozi boshqarmasining tashkilotlariga**	**1 215 824**	**892**		-		-		-		-		-		-	700124	**1 215 824**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	1 215 824															1 215 824																				
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
13	**Davlat hokimiyat organlari**	**386 498 804**	**018**		-		-		-		-		-		-	700124 700126	**7 632 297**		-		-		**83 910 274**	700104	**108 786**	700104	**11 217 783**	700104	**2 244 827**		**1 384 027**		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	389 253 167															7 632 297						83 910 274		108 786		11 217 783		2 244 827		1 384 027					
	ishni joriy xonasi	2 244 827																																			
14	**Xalk deputatlari kengashi kotibiyati**	**215 841**	**240**		-		-		-		-		-		-	700124	**215 841**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	215 841															215 841																				
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
15	**Mahalla va nasroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi**	**4 276 262**	**259**		-		-		-		-		-		-	700124	**671 905**	703140 703142	**3 602 357**		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	4 274 262															671 905		3 602 357																		
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
16	**Oila va xotin qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi**	**2 151 398**			-		-		-		-		-		-	700104	**2 151 398**		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	2 151 398															2 151 398																				
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar	-																																			
17	**Xalkaro kattalkuna markazi xarajatlariga**	**452 830**	**134**		-		-		-	700104	**452 830**		-	700104	-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-		-	
	shu jumladan:																																				
	qoziq xarajatlar	452 830									452 830																										
	shyokilarni loy ihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun xarid qo'yilmalar																																				

Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-52-179-8-118-K/22-son qaroriga
4-ilova

	Soliqlar va yig‘imlardan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2023-yil uchun ajratmalar me’yori												
													Foiz hisobida
Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq *	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq **	Yuridik shaxslar yer solig‘i ***	Yig‘imlar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	Ijara to‘lovlari
Uzun tumani	100	100	100	100	75	50	80	100	100	50	100	20	100

Xalq deputatlari Uzun tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-52-179-8-118-K/22-son qaroriga
5-ilova

2023-yil uchun Uzun tuman budjeti daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari		
		ming so‘mda
Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI	**100 377 816**	**237 816 991**
Uzun tumani	**100 377 816**	**237 816 991**

Xalq deputatlari Uzun tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-52-179-8-118-K/22-son qaroriga
6-ilova

Uzun tuman budjetiga 2023-yilda ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**137 439 175,0**
shundan	
Uzun tumani	**137 439 175,0**

Xalq deputatlari Uzun tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-52-179-8-118-K/22-son qaroriga
7-ilova

2023-yilda Uzun tuman mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**810 870,0**
1	**Uzun tumani**	**810 870,0**